

**ILK O'RTA ASRLARDA HOZIRGI  
AFG'ONISTON HUDUDLARIDA XIONIYLAR  
VA EFTALIYLAR MASALASI**

**Norqo'chqarov Xushvaqt Eshnazarovich**  
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

**THE QUESTION OF THE TRAITORS AND  
EPHTALIANS IN THE TERRITORIES OF  
PRESENT AFGHANISTAN IN THE EARLY  
MIDDLE AGES**

**Norkuchkarov Khushvakt Eshnazarovich**  
Basic doctoral student of Bukhara State University

**ВОПРОС О ПРЕДАТЕЛЯХ И  
ЭФТАЛИАНЦАХ НА ТЕРРИТОРИЯХ  
СОВРЕМЕННОГО АФГАНИСТАНА В  
РАННЕМ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ**

**Норкучкаров Хушвакт Эшназарович**  
Базовый докторант Бухарского государственного  
университета



E-mail:

[xushvaqt.norqochqarov@mail.ru](mailto:xushvaqt.norqochqarov@mail.ru)

[x.e.norkuchkarov@buxdu.uz](mailto:x.e.norkuchkarov@buxdu.uz)

Tel: +998919100221

<https://orcid.org/0000-0002-1841-5760>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ilk o'рта asrlarda hozirgi Afg'oniston hududlariga kirib kelgan xioniylar va eftaliylar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu davrda hozirgi Afg'oniston hududlariga kirib kelgan xioniylar va eftaliylar (ulaning prototurkiy yoki ma'lum ma'noda turkiylar bilan etnik yaqinligi nuqtai nazaridan) mintaqada turkiy xalqlarning etnogenetik shakllanishidagi roli hamda hududdagi ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlarga ta'siri atroflicha tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Afg'oniston, xioniylar, eftaliylar, kushonlar, xunlar, "Oq xunlar", turkiy xalqlar, Afg'oniston o'zbeklari, Yaftali tumani.

**Abstract.** This article provides information about the Khionites and Ephthalites, who entered the territories of present-day Afghanistan in the early Middle Ages. During this period, the role of Khionis and Ephthalians (in terms of their proto-Turkic or, in a certain sense, ethnic affinity with Turks) who entered the territories of Afghanistan in the ethnogenetic formation of the Turkic peoples in the region, as well as their influence on the socio-political and ethno-cultural processes in the region, was analyzed in detail.

**Keywords:** Afghanistan, Khionites, Ephthalites, Kushans, Huns, "White Huns", Turkic peoples, Afghan Uzbeks, Yaftali district.

**Абстрактный.** В данной статье представлены сведения о хионитах и эфталитах, проникших на территории современного Афганистана в раннем средневековье. В этот период также возрастает роль хионинцев и эфталийцев (с точки зрения их прототюркской или, в определенном смысле, этнической близости с тюрками), пришедших на территории Афганистана, в этногенетическом формировании тюркских народов региона, а также подробно проанализировано их влияние на общественно-политические и этнокультурные процессы в регионе.

**Ключевые слова:** Афганистан, хиониты, эфталиты, кушаны, гунны, «белые гунны», тюркские народы, афганские узбеки, Яфтальский округ.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Ilk oʻrta asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasining janubiy hududlari hisoblangan hozirgi Janubiy Oʻzbekiston, Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afgʻoniston hududlarini oʻz ichiga olgan Toxariston hamda Shimoli-Sharqiy Afgʻoniston, xususan Kobul viloyati va uning atroflaridan iborat boʻlgan tarixiy Kobul vodiysida kechgan ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlar bevosita mazkur mintaqaning markaziy hududlari, shu jumladan markaziy Turkiston (Amudaryo-Sirdaryo oraligʻi/Transoksiana-Yettisuv) bilan bogʻliq. Dastlab, kushonlar (numizmatik materiallar va ayrim xitoy manbalari hamda Beruniy<sup>1</sup>ning “Hindiston” asaridagi maʼlumotlar), kidariylar, xiyoniylar va eftaliylar (ayniqsa, eftaliy qabila ittifoqi tarkibida ayrim turkiy qavmlar – xalajlar, kanjina turklari va abdallarning mavjudligi) kabi davlatlar asoschilarining turkiylar bilan etnik yaqinligi yoki ular orasida turkiy elementlar uchrashiga doir fikrlarning mavjudligi asosida ushbu hududlarga ilk turkiy qavmlar kirib kelganligi oʻz tasdigʻiga ega[2].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS).** Maqola asosan oʻzbek, rus, ingliz, fransuz va boshqa olim va mutaxassislarning tadqiqotlarida keltirilgan fikr-mulohazalari oʻzaro solishtirish orqali qiyosiy tahlil qilingan holda oʻrganildi. Ilk oʻrta asrlarda hozirgi Afgʻoniston hududidagi xioniylar va eftaliylar masalasi K.Shoniyoov, A.R.Muhammadjonov, Gʻ.Boboyorov, F.Djumaniozova, X.Xashimbekov, A.Kurbanov, L.N.Gumelov, R.Girshman, M.Isamatov, V.M.Masson, V.A.Romadin, B.A.Litvinsky, M.H. Zamir Safi, Sh.Wahab, B.Youngerman, L. Lee Jonathan, P.Sykes kabi koʻplab Sharq va Gʻarb tadqiqotchilari tomonidan oʻrganilgan boʻlsada ularning etnik kelib chiqishi masalasi hamon dunyo tarixshunosligida yaxlit yechimga ega boʻlmagan muammo sifatida qolmoqda. Maqolada ushbu tadqiqotchilarning fikrlarini oʻzaro solishtirish orqali qiyosiy tahlil qilgan holda oʻrganilgan. Shuningdek, maqolada qiyosiy tahlil metodidan tashqari, tarixiylik,

izchillik, xolislik kabi koʻplab metodlardan ham foydalangan holda mavzu mohiyatini ochishga harakat qilingan.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR (ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ / DISCUSSION AND RESULTS).** Xiyoniylar tarixiy manbalarda IV asrning oʻrtalarida yaʼni 353-yilda (350-356 yillar oraligʻida) Grumbat boshchiligida Soʻgʻd (Sude)ni egallashi hamda 356-yil (359) xioniylar sarkardasi sasoniylar podshosi Shopur II ning Amida (Suriya) shahrini qamal qilishdagi ittifoqdoshi sifatida tilga olinadi. [3, B. 127-133], [4, B. 15], [5, B. 129-140] Xioniylar tarixiy manbalarda har xil nomlar bilan atalgan. Qadimgi arman manbalarida (IV-V asrlar) “xona”, yunon mualliflari xioniy, “Avesto”da xionlar, oʻrta asr manbalarida “xion” kabi nomlanib, “xion” (xioniy) soʻzining etimologiyasi (kelib chiqishi) hozirgacha aniqlanmagan. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga koʻra bu soʻz rosamaxa (kunlar, balki xunlar) totemi nomi bilan bogʻliq[3, B. 127]. Xioniyarning etnik kelib chiqishi asosan xunlar bilan bogʻlanadi. A.R. Mahammadjonovning fikriga koʻra, IV asr oʻrtalarida Yettisuv va Sharqiy Turkistondan Oʻrta Osiyo hududlariga kirib kelgan koʻchmanchi turkiy qabilalar xioniylar nomi bilan ataladi[4, B. 15]. L.N. Gumelovga koʻra, Orol va Kaspiy dengizining shimolida Xun ittifoqi tarkibida koʻplab qabilalar yashagan boʻlib, ular orasida avarlar va kermixion kabi qabilalar ancha katta taʼsirga ega boʻlan. IV asrda Zarafshon hududiga kirib kelgan xionitlar aynan shu kermixionlar (qizil xionlar) hisoblangan[5, B. 134], [6, B. 17]. V.V. Bartoldning taxminicha xioniy etnosi yueban xunlaridan ajralib chiqqan. Oʻz hududlaridan Gʻarbiga Orol dengizining shimoli va Sirdaryo boʻylariga, Qangʻ davlati hududiga koʻchib kelgan xun qabilalari tarkibida xioniylar ham boʻlib, Xunlarning orqasida koʻchishga ulguraolmagan guruhlar Jungʻoriyada qolib, alohida etnik uyushma tashkil etganlar. Bu etnik uyushma ularning yashaydigan hududlari Yueban nomidan olingan[7, B. 180]. K.Shoniyoov ham xioniylar oʻtmishda xun qabilalaridan boʻlganini, ikki yirik guruhga qizil xion va oq xionlarga boʻlinganligini taʼkidlaydi[3, B. 132].

<sup>1</sup> Kurbanbayeva, M. (2023). Abu Rayhon Beruniy hayotiga doir baʼzi mulohazalar. Tamaddun nuri jurnali, 9(48), 64-66.

R.Girshman esa xioniylar Sharqiy Turkistonning Qorashar, Kucha, Xo‘tan va Qoshg‘ar kabi g‘arbiy qismlaridagi shaharlarga egalik qilganligini va ular aynan shu hududlardan So‘g‘diyona va Oks (Amudaryo) janubiga borib o‘rnashganligini ta’kidlaydi[8, B. 120].

Eftaliylar haqidagi dastlabki ma’lumotlar 361-yil (384) da Edessa (Turkiyaning shimoli-sharqidagi hozirgi Urfa) shahri qamali bilan bog‘liq voqealar bayonida tilga olinadi[9, B. 2], [5, B. 129]. Ular arman manbalarida *Hepthal*, *Hep‘t‘al*, *Tetal*; yunon manbalarida *Εφθαλιται* (Hepthalites), *Αβδελαι* (Abdel/Avdel) yoki “Oq xun” (*White Huns*); suryoniy manbalarida *Ephthalita*, *Tedal*; o‘rta fors tilidagi manbalarda *Hepthal* va *Hephtel*; zardo‘shiylik manbasi hisoblangan “Bundixishn”da *Hēvtāls*; hind manbalarida *Hūna*; baqtry hujjatlarida *ηβοδαλο* (ebodalo); xitoy manbalarida *Ye-da*, *Ye-dien*, *Idi*, *Yeta-i-lito*; arab manbalarida esa *Haital*, *Hetal*, *Heithal*, *Haiethal* ba‘zan esa *turklar* kabi nomlar bilan atashgan[9, B. 2]. XVII asrdan boshlab jahon tarixshunosligida eftaliylar mavzusiga qiziqish boshlangan bo‘lsada, ularning etnik mansubligi va protovatani masalasida hozirgacha ham tadqiqotchilar o‘rtasida yaxlit bir to‘xtam mavjud emas. Tadqiqotchi M.Isomatov yozma manbalardagi tahlillar asosida yevropa tarixshunosligida paydo bo‘lgan eftaliylarning etnik kelib chiqishi haqidagi nazariyalarni besh turga ajratadi: 1) Eftaliylarning xunlarga mansubligi (E.Druyen, A.Steyn, A.Kenningem, G.-Sh.Ujfalvi va b.); 2) Eftaliylarning yuechjilar bilan etnik yaqinligi (V.de’ Sen-Martin, P.I.Lerx, K.A.Inostransev, N.I.Veselovskiy, G.Grum-Grjimaýlo, V.V.Bartold); 3) Eftaliylarning turkiylarga mansubligi (Yu.M.Klaprot, A.Xo‘jayev); 4) Eftaliylarning mo‘g‘ullardan ekanligi (Y.Markvart); 5) Eftaliylarning oltoy kelib chiqishga egaligi (F.Altxaym) [10]. Eftaliylarning eroniy xalqlar bo‘lganligi haqida ham fikrlar bildirilgan (A.Mandelshtam, M.Dyakonov va B.G‘ofurov) [9, B. 3-4], [11, B. 11]. Shuningdek, V.Masson, V.Romadin va G.Girshman kabi tadqiqotchilar xioniylar va eftaliylarni etnik jihatdan bir xalq ekanligini, eftaliylar xioniylarning hukmdorlari yoki hukmron tabaqasiga aylanib, “Eftal” (“Heptal”) sulolaviy nomini olganligini, ular etnik jihatdan xunlar bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi[12, B. 199-211], [8, B. 116-120]. G‘.Boboyorov esa turklar ilk o‘rta asrlarda shu nom bilan tarix sahnasiga

chiqishlaridan oldin ko‘plab boshqa turkiy elatlar kabi umumlashtiruvchi etnonim bilan “xun” deb atalganligini ta’kidlaydi. Xunlar bir qancha qabilalar ittifoqidan tashkil topgan bo‘lib, xioniylar va eftaliylar ham ushbu ittifoq tarkibida bo‘lganligini aytib o‘tadi[13, B. 11]. F.Djumaniyozovaga ko‘ra: Eftaliylarning Markaziy Osiyoda kechgan siyosiy-harbiy jarayonlardagi ishtiroki V asrning o‘rtalaridan boshlanadi. Arman manbalarida 450-yillardagi voqealar tilga olinganda, “eftaliylar mamlakati” jumlasini keltiriladi. Xitoy manbalarida esa 456-yilda eftaliylarning birinchi elchiligi imperator saroyiga tashrif buyurgani aytiladi. Ular V asrning ikkinchi yarmidan boshlab Amudaryo bo‘yi va uning janubiy sohilidagi (asosan hozirgi Afg‘oniston) hududlarni birin-ketin qo‘lga kiritadi. Jumladan, eftaliylar 457-yilda sobiq kushon davlatining mulklari va keyinchalik sosoniylar tasarrufiga o‘tgan Chag‘aniyon, Toxariston va Badaxshon viloyatlarini, 475-yilda (460) Kobul va Gandxarani, 484-yilda sosoniylar qo‘shini mag‘lub etilgach Toxariston to‘liq egallanib, Balxni siyosiy markazga aylantirgan. Eftaliylar ittifoqi tarkibida esa juda ko‘plab turkiy qavmlar hozirgi Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va tarixiy Shimoliy Hindiston hududlariga kelib o‘rnashishgan hamda ushbu mintaqalarda kechgan ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazgan[14, B. 18-23]. Xioniylar va eftaliylarning siyosiy-ma’muriy markazi sifatida Bomiyon va Balx ko‘rsatiladi[15, B. 6]. Biroq, manbalarda yana bir qancha shahar nomlari keltiriladi, bu esa eftaliylar hududining kengayishi va mavsumiy yoki vaqt o‘tishi bilan ma’muriy markazlari o‘zgarib turganligini ko‘rsatadi. Jumladan, Enokining qayd etishicha Amudaryoning yuqori oqimida joylashgan Toxaristonda ularning ikkita markazi bo‘lib, biri Badaxshonning g‘arbida joylashgan va geografik joylashuv jihatidan Syuan-Szyanning g‘arbiy mamlakatlar ta’rifidagi Si-mo-ta-lo mamlakati bilan aynanlashadi. Shuningdek, “Qorli tog‘ning etagi” ma’nosini beruvchi bu nom eftalit so‘zining sanskritcha aytilishi bo‘lishi mumkin deb taxmin qiladi. Yana bir markazi G‘ur (Qunduzning janubi)da bo‘lib, Xitoy manbalaridagi Xua va Prokopiy keltirgan Gorgo aynan shu hisoblanishini ta’kidlaydi. Shuningdek, Amudaryoning janubida bugungi Qunduz yaqinidagi qadimiy Varvaliz shahri, hukumdorning qishlov qarorgohi sifatida esa

Fayzobodning janubi (Afgʻonistonning shimoli-sharqi)dagi shahar harobalari Badian manzilgohi boʻlganligi taʼkidlanadi[9, B. 5-6]. Manbalarda arablar bosqini arafasida hozirgi Afgʻonistonning shimoli-gʻarbiy hududlarida eftaliylarning konfederatsiya koʻrinishidagi kuchli davlati mavjud boʻlgan. Ushbu davlatning maʼmuriy markazi Bodgʻis shahri boʻlgani hamda konfederatsiyaga Nezak Tarxon hukmdorlik qilgani aytib oʻtiladi[16, B. 180-187]. Manba va adabiyotlarda Gorgo (Gurganj), Poykent (Buxoro yaqinida) va boshqa shaharlar ham eftaliylar davlatining poytaxti boʻlganligi aytib oʻtiladi. Yuqorida keltirgan eftaliylar mamlakati siyosiy-maʼmuriy markazlarining asosiy qismi hozirgi Afgʻoniston hududidagi manzillarga toʻgʻri keladi. Yana bir jihat Afgʻonistonning ilk oʻrta asrlar davri tarixiga oid Gʻarb tadqiqotchilari asarlarida eftaliylarga nisbatan Oq Xunlar (*Withe Huns*) jumlasini ishlatiladi[17, B. 49-50], [18, B. 31], [19, B. 134-139]. Ilk oʻrta asrlarda Markaziy Osiyo va Afgʻoniston hududlarida kushonlar (yuechji), xioniylar, kidariylar va eftaliylar kabi qabilalar hamda ularning tarkibida kirib kelgan turkiy va boshqa koʻplab turli xalqlar mintaqaning bugungi aholisi shakllanishida muhim rol oʻynagan. Jumladan, hozirgi Afgʻonistonning sharqida Badaxshon viloyati Yaftali (Sufila) ulusvoliyasi (tumani) mavjud boʻlib, ushbu tuman 2005-yil viloyatdagi katta tumanlardan biri Fayzoboddan ajratilgan holda alohida ulusvoliy sifatida tuzilgan. Yaftali (Sufila) ulusvoliyasi (tumani) aholisi 60 mingga yaqin boʻlib, qadimgi eftaliylar bilan bogʻliq “yaftalilar” nomli xalqlar yashashi aytiladi. Yaftalilarning muloqot tili fors-dariychada boʻlsada, urf-odatlarida turkiy xalqlarnikiga oʻxshash jihatlari koʻp hisoblanadi. Xoʻjaligida asosiy mashgʻuloti baliqchilik hisoblanadi. Shuningdek, dehqonchilik, chorvachilik va tijorat bilan shugʻullanuvchilari ham bor. Afgʻonistonda yaftalilarga oʻxshash yana bir xalq bu – aholi orasida “Kushoniylar” deb nomlanadi. Ular ham yaftalilarga yaqin hududda, Badaxshon viloyatida hamda Taxorning Farxor ulusvoliyasi (tumani)da yashashadi. Kushoniylar ham yaftalilarga oʻxshash hislatlarga ega boʻsada, ammo xoʻjaligida asosan bogʻdorchilik ustunlik qiladi.

#### XULOSA

(ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Xulosa qilib aytish mumkinki, ilk oʻrta asrlarda hozirgi

Afgʻoniston hududlaridagi xioniylar va eftaliylar ushbu mintaqaning etnomadaniy, ijtimoiy va siyosiy manzarasiga katta taʼsir oʻtkazgan. Ularning turkiy ekanligi yoki turkiy xalqlar bilan etnik yaqinligi, prototurkiy xalqlar ekanligi jihat muhim hisoblanadi. Xususan, zamonaviy Afgʻoniston aholisi tarkibida millionlab turkiy millatlar: oʻzbeklar, turkmanlar, xuroson turklari va boshqa turkiy xalqlarning shuningdek, pushtun (afgʻon) qabilalarining shakllanishida ham muhim rol oʻynaganligi tadqiqotchilar tomonidan ilmiy asoslantirilgan. Ayniqsa, afgʻon oʻzbeklari va turkmanlarining etnik qatlam sifatida ushbu mintaqaning tub aholisi sifatida shakllanishida muhim rolga ega boʻlgan.

#### ADABIYOTLAR ROʻYXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Kurbanbayeva M. (2023). Abu Rayhon Beruniy hayotiga doir baʼzi mulohazalar. “Tamaddun nuri” jurnali, 9(48), 64-66.
2. Djumaniyozova F.Dj. Ilk oʻrta asrlarda Toxariston va Kobul vodiysida turkiy sulolalar. Avtoreferat, tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD). – Toshent, 2018. – 49 b.
3. Shoniyozov K. Oʻzbek xalqining shakllanish jarayoni. – T.: “Sharq”, 2001. - 464 b.
4. Muhammadjonov A.R. Oʻzbekiston tarixi (IV asrdan – XVI asr boshlarigacha). – T.: Gʻ.Gʻulom nomidagi NMIU, 2004. – 321 b.
5. Гумелов Л.Н. Эфталиты и их соседи в IV веке // Вестник древней истории. – М., 1959. – № 1. – С. 129-140.
6. Гумелов Л.Н. Древние тюрки, – М., 1967, – 504 с.
7. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Соч. Т. 2, – М., 1963, – С.149-433.
8. Girshman R. Les Chionites-Nephtalites. – Le Caire, 1948. – 165 p.
9. Kurbanov A. Nephthalites: Archaeological and historical analysis. PhD theses submitted to the Department of History and Cultural Studies of the Free University. – Berlin, 2010. – 300 p.
10. Исоматов М.М. Эфталитское государство и его роль в истории Центральной Азии // Автореф. дис. док. ист. наук. – Душанбе, 2009.

11. Джуманиязова Ф. История Тохаристанских Ябгу и Тегиншахов Кабула. – Нур-Султан: «Ғылым» баспасы, 2021. – 240 с.
12. Массон В.М., Ромадин В.А. История Афганистан. С древнейших времен до начала в. Т.1. – Москва: Наука, 1964. – 368 с.
13. Boboyorov G'. G'arbiy Turk xoqonligi tarixi va tanga-pul tizimi. – Toshkent, "Tafakkur avlodi", 2021. – 224 b.
14. Djumaniyozova F.Dj. Ilk o'rta asrlarda Toxariston va Kobul vodiysida turkiy sulolalar. Dissertatsiya, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). – Toshent, 2018. – 184 b.
15. Хашимбеков Х. Узбеки Северного Афганистана. – М., Институт востоковедения РАН, 1994. – С. 56.
16. Litvinsky B.A., M.H. Zamir Safi. The later Hephthalites in Central Asia // History of Civilizations of Central Asia. Vol. 3. – Paris: UNESCO Publishing, 1996. – P. 180-187.
17. Wahab Sh., Youngerman B. A brief history of Afghanistan. – New York: Infobase Publishing, 2007. – 308 p.
18. Jonathan L. Lee. Afghanistan: A History from 1260 to the Present. – London: Reaktion Books Ltd, – 2018. – 780 p.
19. Sykes Percy. A history of Afghanistan. Vol. I. – London: MACMILLAN & L.T.D, 1940. – 413 p.
20. Ushbu ma'lumotlar tadqiqotchi X.Norqo'chqarov tomonidan Termiz shahrida istiqomat qilayotgan Afg'oniston fuqarolari bo'lgan o'zbeklar bilan suhbatida vaqtida yozib olingan, 2024-yil aprel-may.

